

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILLIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АҲАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kulbekova Nasiba,

Toshkent viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: nasibakulbekova@yandex.ru

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048583>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim transformatsiyasining inson salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni tahlil etilgan. Jumladan, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar orqali insonning intellektual, ijodiy hamda kasbiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiyot sohalari bilan ta'lim tizimi integratsiyasining strategik vazifalari yoritilib, bu jarayonlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadigan raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish masalalari ochib beriladi. Maqola zamonaviy ta'lim yondashuvlarining inson salohiyatiga ta'siri, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari hamda istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: transformatsiya, ta'lim, innovatsiya, texnologiya, rivojlanish, kreativlik, tafakkur, kompetentlik, tizim, integratsiya, strategiya, boshqaruv, islohotlar, davlat-xususiy sheriklik.

Кулбекова Насиба,

Руководитель Управления высшего образования, науки и инноваций Ташкентской области, доктор философии (PhD) по социологическим наукам

e-mail: nasibakulbekova@yandex.ru

ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ: ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ, СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ И ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ В СФЕРАХ ЭКОНОМИКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирована роль трансформации образования в повышении человеческого потенциала. В частности, рассматриваются возможности развития интеллектуального, творческого и профессионального потенциала человека с помощью инновационных технологий, современных педагогических и психологических подходов. Также освещаются стратегические задачи интеграции системы образования с экономическими отраслями, а также раскрываются вопросы формирования конкурентоспособного человеческого капитала, способствующего социально-экономическому развитию. Статья направлена на изучение влияния современных образовательных подходов на человеческий потенциал, механизмов их внедрения в практику и выявление перспективных направлений.

Ключевые слова: трансформация, образование, инновация, технологии, развитие, креативность, мышление, компетентность, система, интеграция, стратегия, управление, реформы, государственно-частное партнерство.

Kulbekova Nasiba,

Head of the Department of Higher Education,
Science and Innovation of Tashkent Region,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociological Sciences
e-mail: nasibakulbekova@yandex.ru

TRANSFORMATION OF EDUCATION: INNOVATIVE TECHNOLOGIES, NEW PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES, AND STRATEGIC DEVELOPMENT TASKS AND PRIORITIES IN ECONOMIC SECTORS

ABSTRACT

This article analyzes the role of educational transformation in enhancing human potential. In particular, it explores the opportunities for developing intellectual, creative, and professional capacities through innovative technologies and modern pedagogical and psychological approaches. The paper also highlights the strategic tasks of integrating the education system with economic sectors and discusses how these processes contribute to the formation of a competitive human capital that drives socio-economic development. The article focuses on the impact of contemporary educational approaches on human capacity, mechanisms for their practical implementation, and the identification of future priority directions.

Keywords: transformation, education, innovation, technology, development, creativity, thinking, competence, system, integration, strategy, governance, reforms, public-private partnership.

KIRISH

Hozirgi davrda inson kapitalining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishdagi oʻrni keskin ortib borayotgan bir sharoitda, taʼlim sohasida chuqur mazmunli va tizimli islohotlar oʻtkazilishi dolzarb zaruratga aylanmoqda. Xususan, globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal surʼatlarda rivojlanishi hamda bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishi fonida taʼlim tizimining transformatsiyasi milliy va xalqaro darajadagi strategik ustuvor yoʻnalish sifatida eʼtirof etilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda innovatsion texnologiyalar asosida shakllanayotgan taʼlim modeli – nafaqat har bir fuqaroning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini toʻlaqonli rivojlantirishga xizmat qilmoqda, balki insonni uzluksiz oʻrganishga, yangilikka intilishga va oʻz hayot yoʻlini ongli tarzda belgilashga chorlovchi kuchli ijtimoiy institut sifatida namoyon boʻlmoqda.

Mazkur jarayonda yangi pedagogik, psixologik va didaktik yondashuvlar taʼlim tizimiga shaxsga yoʻnaltirilgan, kompetensiyaga asoslangan metodologiyani chuqur singdirib, inson salohiyatini har tomonlama ochish, uni oʻzini rivojlantiruvchi, kreativ va ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllantirish imkonini bermoqda. Bu esa, oʻz navbatida, raqobatbardosh va innovatsion tafakkurga ega boʻlgan mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, ilm-fan va texnologiyalarni integratsiyalashuviga erishish yoʻlida muhim omil sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, taʼlim tizimi va iqtisodiyot sohalari oʻrtasidagi uzviy integratsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ilgʻor kadrlar siyosatini shakllantirish, va milliy rivojlanish strategiyasini izchil amalga oshirishda muhim rol oʻynamoqda. Ayniqsa, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarini, innovatsion yondashuvlarni hamda davlat-xususiy sherikchilik tamoyillarini taʼlim tizimiga samarali singdirish orqali barqaror va inklyuziv taraqqiyotga erishish yoʻllari yanada mustahkamlanmoqda. Bu integratsion yondashuv mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, taʼlim transformatsiyasi bugungi kunda inson salohiyatini yuksaltirish, fuqarolik ongini shakllantirish va kelajak avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, ijtimoiy masʼuliyatli shaxslar etib tarbiyalashda asosiy strategik yoʻnalish sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu esa, oʻz

navbatida, jamiyat taraqqiyotining barqaror asoslarini yaratishda ta'limning beqiyos rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng ko'lamda joriy etish inson salohiyatini rivojlantirishda muhim strategik omil sifatida e'tirof etilmoqda.

“Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm – fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan” [1]. Xususan, raqamli platformalar, sun'iy intellektga asoslangan interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim modellarining keng qo'llanilishi orqali har bir shaxs uchun bilim olish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar va talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishga, tanqidiy tahlil qilishga va o'z salohiyatini to'laqonli namoyon etishga undaydi.

Shu jihatdan, interaktiv o'quv texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi ta'lim oluvchilarning faolligini oshirib, ularning o'z-o'zini anglash, o'zini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Innovatsion muhitda tashkil etilgan ta'lim jarayoni esa insonning kognitiv (bilish), ijtimoiy va texnologik kompetensiyalarini uyg'unlashtirgan holda, uni zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etadigan, ijtimoiy mas'uliyatli va intellektual barkamol shaxs sifatida shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlagan quyidagi so'zlar alohida e'tiborga loyiq: “Ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz [2]. Mazkur yondashuv – nafaqat infratuzilmaviy va texnologik imkoniyatlarni kengaytirish, balki inson salohiyatini tizimli, uzluksiz va maqsadli rivojlantirishga qaratilgan chuqur islohotlar asosini tashkil etmoqda. Bunday strategik qarashlar ta'limni faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti va inson kapitali sifatini oshirishning asosiy poydevori sifatida ko'rishga olib kelmoqda.

Mazkur yondashuv – nafaqat infratuzilmaviy va texnologik imkoniyatlarni kengaytirish, balki inson salohiyatini tizimli, uzluksiz va maqsadli rivojlantirishga qaratilgan chuqur islohotlar asosini tashkil etmoqda. Bunday strategik qarashlar ta'limni faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti va inson kapitali sifatini oshirishning asosiy poydevori sifatida ko'rishga olib kelmoqda.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida ta'limda teng imkoniyatlar yaratilmoqda, bu esa ayniqsa chekka va olis hududlarda istiqomat qiluvchi yoshlarning ham zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun keng yo'l ochmoqda. Natijada, ta'lim jarayoni ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda har bir shaxs uchun ochiq va inklyuziv muhitni ta'minlab, yosh avlodning ijtimoiy faolligi hamda raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Bu jarayon, bir tomondan, inson kapitalining hududlar bo'yicha muvozanatli va izchil rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, kelajakda har sohada salohiyatli va yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish uchun barqaror poydevor yaratmoqda. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta'lim transformatsiyasining markaziy omiliga aylanib bormoqda. Ular inson salohiyatini erta bosqichlarda aniqlash, uni maqsadli yo'naltirish, va zamonaviy jamiyatning o'zgaruvchan talablariga mos shakllantirishda eng muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta'lim transformatsiyasining markaziy omiliga aylanib bormoqda. Ular inson salohiyatini erta bosqichlarda aniqlash, uni maqsadli yo'naltirish, va zamonaviy jamiyatning o'zgaruvchan talablariga mos shakllantirishda eng muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, respublikamizda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, raqamli va innovatsion muhitga moslashtirish, hamda ta'lim sifati va mazmunini tubdan yangilash bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Ushbu yondashuv – har

tomonlama yetuk, barkamol, ijodkor, kreativ fikrlay oladigan, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlash jarayonining asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda talabani mustaqil fikr yuritishi, tanqidiy yondashuvi, innovatsion g'oya va loyihalarni ilgari surish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda insoniyat taraqqiyoti ilmiy-texnologik jarayonlarning yangi bosqichiga – “postindustrial” yoki “raqamli davr”ga o'tish arafasida turibdi. Bu davrda asosiy e'tibor inson resurslaridan samarali foydalanish, ularning salohiyatini eng yuqori darajada ro'yobga chiqarish, intellektual kapitalni ishlab chiqarishning ustuvor manbai sifatida shakllantirishga qaratilmoqda [3].

Shu ma'noda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli va chuqur islohotlar xalqaro ilg'or tajribalar asosida sifatli, zamonaviy va raqobatbardosh ta'lim modelini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu transformatsiyalar zamidida — inson salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, uni global mehnat bozorining raqobatbardosh subyektiga aylantirish, milliy manfaatlarga sodiq, ammo dunyoqarashi keng, innovatsion tafakkurga ega mutaxassislarni yetishtirish maqsadi mujassamdir.

Xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlariga asoslanib, har bir talabani individual qobiliyatlarini aniqlash, ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv orqali o'quvchi va talabalarning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi belgilab berilib, ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi, o'z-o'zini anglash va baholash qobiliyati kuchaytirilmoqda.

Shu bilan birga, ta'limda psixologik yondashuvlarning chuqurlashtirilayotgani yoshlarning intellektual-emotsional holatini hisobga olgan holda, ularning bilimni o'zlashtirish darajasini oshirish, stressga bardoshlilikni shakllantirish va ijtimoiy moslashuvchanlikni kuchaytirishda muhim omil bo'lmoqda. Natijada ijtimoiy faollikka ega, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan, innovatsion qarorlar qabul qila oladigan, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxslar shakllanmoqda.

Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, ilmiy-texnologik taraqqiyot sanoat bosqichidan inson omiliga asoslangan taraqqiyot bosqichiga o'tayotgan bugungi davrda yanada dolzarb tus olmoqda. Endilikda ta'limning vazifasi faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, balki insonning kognitiv (bilish), ijtimoiy va texnologik kompetensiyalarini integratsiyalashtirish holda rivojlantirishdan iborat bo'lib bormoqda. Bu esa inson salohiyatini yanada chuqurroq anglash, uni zamonaviy texnologiyalar yordamida maqsadli rivojlantirish, raqamli muhitda faol va samarali faoliyat yuritadigan shaxsni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ta'kidlash lozimki, bu jarayon jamiyatda salohiyatli insonlar tabaqasining shakllanishiga olib kelmoqda. Ular nafaqat o'z hayotida, balki jamiyat va davlat miqyosida ham ijobiy o'zgarishlar qilishga qodir bo'lgan yetuk shaxslardir.

“Zamonaviy ta'lim tizimi, uning maqsad va vazifalari respublikamiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan muammo yechimlariga mos kelishi zarur. Jahonda yuz berayotgan ilm-fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti kishilar intellektual salohiyati haqida aniq tasavvur beradi. Shu sababli ta'limni axborotlashtirish, intellektuallashtirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan [4].

Mazkur yondashuvlar orqali inson salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi qator muhim yo'nalishlar ilgari surilmoqda. “Ijodiy faoliyat – bu subyekt faoliyatining o'z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko'chirish, muammoli, ma'lum obyektning yangi funksiyasini ko'ra bilish) jarayonidir. Ijodiy faoliyat jarayoni bu mustaqil o'quv-bilish faoliyatining eng yuqori darajada namoyon bo'lishi bo'lib, u o'zgaruvchan tavsifga ega bilim, ko'nikma va muayyan ijodiy faoliyat tajribasi hamda bilishning ijobiy motivlari sharoitida yuzaga kelishi hamda shu asosda o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribalarini egallashini ko'rsatdi” [5].

Xususan, sivilizatsion pedagogik tizimlar asosida kasbiy mutaxassislarni bosqichma-bosqich tayyorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanilgan ta'lim metodlari va texnologiyalarni

ishlab chiqish insonning nafaqat bilimli, balki tarbiyali, ijtimoiy mas'uliyatli, ijodiy va innovatsion salohiyatga ega shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, “fan – ta’lim – amaliyot” integratsiyasini chuqurlashtirish, ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, uzluksiz ta’limni samarali tashkil etish orqali har bir o’quvchi va talabada mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va yangilik yarata olish qobiliyatlari kengayadi. Bu esa inson salohiyatining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladigan ta’lim muhitini shakllantiradi.

Eng muhimi, xalqaro ilg’or tajribalarni chuqur o’rganish va ularni milliy kontekstda amaliyotga joriy etish orqali biz salohiyatli avlodni yetishtirishga erishamiz. Shu tarzda shakllangan ta’lim tizimi jamiyatning raqobatbardosh, tashabbuskor, ilg’or fikrlaydigan inson kapitali bilan boyishini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh avlodni – ya’ni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masala sifatida qaralmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomasida bu borada alohida to’xtalib o’tildi: “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo’lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” [6]. Bu fikrlar mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim siyosatining tub mohiyatini ochib beradi. Bugungi kunda har bir islohotning asosiy e’tibori shunchaki bilim berish emas, balki shaxsning to’liq shakllanishi, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, vatanparvar insonni tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa ta’lim tizimini yangicha asosda tashkil qilishni, metod va vositalarni chuqur isloh etishni taqozo etadi.

Ayniqsa, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo’lgan barcha bosqichlarda tarbiya jarayoniga milliy qadriyatlar, ma’naviyat va axloqiylik mezonlarini uyg’unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Mamlakatimizda professor-o’qituvchilar faoliyatini baholash, eng muhim samaradorlik ko’rsatkichlari (KPI) ni aniqlash bo’yicha tadqiqotlar OTMLar boshqaruvini takomillashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqda. Xususan, tadqiqotlarda KPI tizimi bir xil standartlarga emasligi, OTMLar, hududlar, mamlakatlarning xususiyatlariga asoslangan holda amalga oshirish samaraliroq hisoblanishi qayd etilgan, shuningdek professor-o’qituvchilarni baholash jarayonlari amaliyotida qo’llanilayotgan yondashuvlar shaffof hisob-kitoblarga qurilmaganligi, texnologik jarayonlar yetarli asoslantirilmaganligi, ko’p hollarda axborotlar va bajarilgan ish natijalariga beriladigan baho subyektiv va tushunarsiz xususiyatga ega bo’lishi aniqlangan” [7]. “Yangi O’zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ham ta’lim va tarbiya bir butun jarayon sifatida talqin qilinib, yoshlarning ma’naviy kamoloti davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi etib belgilanmoqda. Shu maqsadda ta’lim tizimida:

Mamlakatimizda professor-o’qituvchilar faoliyatini baholash, eng muhim samaradorlik ko’rsatkichlari (KPI) ni aniqlash bo’yicha tadqiqotlar OTMLar boshqaruvini takomillashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqda. Xususan, tadqiqotlarda KPI tizimi bir xil standartlarga emasligi, OTMLar, hududlar, mamlakatlarning xususiyatlariga asoslangan holda amalga oshirish samaraliroq hisoblanishi qayd etilgan, shuningdek professor-o’qituvchilarni baholash jarayonlari amaliyotida qo’llanilayotgan yondashuvlar shaffof hisob-kitoblarga qurilmaganligi, texnologik jarayonlar yetarli asoslantirilmaganligi, ko’p hollarda axborotlar va bajarilgan ish natijalariga beriladigan baho subyektiv va tushunarsiz xususiyatga ega bo’lishi aniqlangan.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida o’quv dasturlari qayta ko’rib chiqilmoqda, pedagog kadrlar faoliyatini baholash mezonlari takomillashtirilmoqda, xalqaro reytinglar va baholash tizimlariga moslashtirilgan o’quv standartlari joriy etilmoqda.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish, ularni hududiy va tarmoq ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, shuningdek, yoshlarning tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash orqali inson kapitali sifat jihatidan yuksaltirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta’lim tizimini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish — bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki butun jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy-madaniy jarayondir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrida ta’lim muassasalari ilg’or

texnologik vositalarni o'z faoliyatiga tatbiq etish orqali nafaqat bilim berish uslublarini yangilamoqda, balki o'quvchilar va talabalar uchun individual o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini yaratmoqda. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt tizimlari, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarni mustaqil o'rganishga, tanqidiy fikrlashga, hamkorlikda ishlashga va muammoni hal etishga yo'naltiradi.

Bunday texnologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashgan ta'lim modeli – o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligi va ijodkorligini rag'batlantirishga asoslangan bo'lib, ularni o'quv jarayonining passiv iste'molchisi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, ta'lim subyektlarining (o'qituvchi va o'quvchi) o'zaro interaktiv hamkorligi yangi turdagi bilim va ko'nikmalarni egallashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari orqali har bir o'quvchining individual o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olingan holda moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish imkoniyati mavjud bo'lmoqda.

Shuningdek, bu o'zgarishlar pedagog kadrlarning roli va faoliyat strategiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda o'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi emas, balki zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan, o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi yo'lboshchi, murabbiy, motivator sifatida namoyon bo'lmoqda. "O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi" [8].

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularni zamonaviy metodlar bilan qayta tayyorlash va uzluksiz professional rivojlanish tizimini yo'lga qo'yish ta'lim transformatsiyasining ajralmas bo'g'inidir. Shu maqsadda o'quv dasturlarining xalqaro standartlar asosida takomillashtirilishi, o'quv-uslubiy materiallarning innovatsion vositalar bilan uyg'unlashtirilishi dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu o'rinda ta'lim muassasalarida ilm-fan, ishlab chiqarish va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish, ya'ni "fan – ta'lim – amaliyot" uchligi asosida kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yondashuv natijasida o'quvchi yoki talaba nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, ixtisosligi bo'yicha real muammolarni tahlil etish va ularni hal etish ko'nikmalarini egallaydi. Natijada, mehnat bozorida raqobatbardosh, ijtimoiy mas'uliyatli, intellektual jihatdan rivojlangan inson kapitali shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson kapitali taraqqiyotning asosiy strategik resursiga aylanmoqda. Mazkur jarayonda ta'lim tizimining tubdan transformatsiya qilinishi muqarrar bo'lib, uning mazmun-mohiyatini zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar belgilamoqda. Inson salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bu yondashuvlar orqali ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli, raqobatbardosh va kreativ shaxslarni tayyorlash imkoniyati yaratilmoqda.

Ta'lim va iqtisodiyot sohalarining integratsiyalashuvi, ilg'or boshqaruv konsepsiyalarining joriy etilishi hamda raqamli texnologiyalar orqali ta'limda teng imkoniyatlar yaratilishi – inson kapitalini hududiy va tarmoq kesimida barqaror rivojlantirishning asosiy omiliga aylangan. Xususan, "fan – ta'lim – amaliyot" bog'liqligini mustahkamlash, pedagog kadrlarning kompetensiyasini oshirish va milliy qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim tizimi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shuningdek, har bir islohotning markazida inson salohiyati turgani, ushbu jarayonlar orqali faqat bilim emas, balki shaxsiy, ijtimoiy va texnologik kompetensiyalar ham shakllanayotgani kuzatilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy qadriyatlarga tayangan holda xalqaro standartlar sari intilib, salohiyatli avlodni tarbiyalash, barqaror taraqqiyot va kuchli inson kapitalini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Demak, zamonaviy ta'lim tizimi – bu nafaqat o'quvchi va talabalarning bilim olish maydoni, balki ularning intellektual o'sishi, ijtimoiy

mas'uliyatni anglash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamda jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlanish jarayonidir. Kelajakda taraqqiyotga erishish, global raqobatga bardosh bera oladigan milliy iqtisodiyotni shakllantirish uchun aynan mana shunday zamonaviy, tizimli va innovatsion yondashuvlarga tayangan ta'lim strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Sultonmurodov K.S. "Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini oshirish va professional ta'lim tizimi". https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/586
2. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz>
3. Zaripov L. "Texnologiya o'qituvshilarini kasbiy tayyorlashning tarixiy asoslari va hozirgi holati"// Jurnal "Ta'lim, fan va innovatsiya", 2-son. 2024-yil.
4. Bo'ltakov S. Sivilizatsion pedagogik tizimlarni shakllantirish masalalari/ «O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022-yil 30-noyabr. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7357864>
5. Hojiyeva Z.O. "Bo'lajak o'qituvchilarni birgalikdagi ijodiy faoliyatga o'rgatish pedagogik muammo sifatida"// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 yil № 6). <file:///C:/Users/USER/Downloads/4392-9320-1-10-20250115.pdf>
6. Usmonova M. O'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash metodikasining kreativ pedagogik yondashuvi//Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Problems of Humanities and Social Sciences., 4 (3). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I3Y2024N84>
7. Ibraimov X. "Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari kasbiy faoliyatini talabalarning qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash texnologiyasi"// Jurnal "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari". Navoiy davlat pedagogika instituti. 2023/10/31. №1. – B. 45-57.
8. Husenova A.Sh. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro dasturlar pisa, pirls, timss, talis, egma va egra asosida o'qish savodxonligini oshirishning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari". <https://soff.uz/product/maktabgacha-va-boshlangich-talim-boshlangich-sinf-oquvchilarini-xalqaro-dasturlar-pisa-pirls-timss-talis-egma-va-egra-asosida-oqish-savodxonligini-oshirishning-tashkiliy-pedagogik-xususiyatlari>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000